

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Толипов Файзулла Саидович

кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Алимухамедова Нодира Ядгаровна

доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Тагиева Гулсум Гафуровна

доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

Ахмедова Феруза Медетовна

доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Зайтов Элёр Холмаматович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Қаюмов Қахрамон Нозимжонович

доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Доспанова Дилара Уракбаевна

кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Якубов Ильдар Харрасович

кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI.....	9
2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	18
3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	27
4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	35
5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI.....	42
6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51	
7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARIDAN FOYDALANISH.....	59
8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	68
9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	75
10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY ONG TRANSFORMACIYASI: UZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ENDAIUV).....	93
12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV).....	100
13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR.....	107

14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA.....	114
15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI.....	123
16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	130
17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI.....	139
18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	148
19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ.....	157
20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ.....	167

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Imomova Nozimaxon,

Farg‘ona davlat universiteti

“Sotsiologiya” kafedrası v.b.dotsenti
sotsiologiya fanlari bo‘yicha f.dok.(PhD)
e-mail: imomovanozima4@gmail.com

MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME‘YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338543>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarini qonuniy ximoyasini takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat boshqaruv mexanizmining asosiy xususiyatlarini tahlil qilishni talab etilishi izohlangan. Shuningdek, mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari ilmiy tahlil qilinib uning ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonini turli ta‘sirlari o‘rganilib, salbiy ta‘sirini oldini olishda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, unga oid muommolar yechimini takomillashtirish yo‘llari tavsiya qilingan va muallif tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar va rasmiy ma‘lumotlar orqali qiyosiy taxlil qilish natijasida olingan hulosalar taqdim qilingan.

Kalit so‘zlar: Mehnat migratsiyasi, tendensiya, huquqiy himoya, xalqaro mehnat bozori, mamlakat.

Имомова Нозимахон,

Ферганский государственный университет,

доцент кафедры социологии,

доктор философии по социологическим наукам (PhD)

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ И НОРМАЛЬНОЙ БАЗЫ В СФЕРЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье показано, что для разработки государственной политики по регулированию процессов трудовой миграции и совершенствованию правовой защиты трудовых мигрантов и членов их семей необходимо проанализировать основные особенности механизма государственного управления в структуре и движение процессов трудовой миграции. Также, были научно проанализированы современная ситуация и тенденции

миграции в стране, изучены различные последствия процесса социальной трансформации трудовой миграции, особое внимание уделено вопросам правового регулирования в целях предотвращения ее негативных последствий, а также способам решения проблем, связанных с данным вопросом. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

Ключевые слова: трудовая миграция, тенденция, правовая защита, международный рынок труда, страна, заработная плата, уровень жизни, потребность.

Imomova Nozimakhon,

Fergana State University

Associate Professor, Department of Sociology

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

IMPROVEMENT OF THE LEGAL AND REGULATORY FRAMEWORK IN THE SPHERE OF LABOR MIGRATION

ABSTRACT

This article shows that in order to develop a state policy to regulate labor migration processes and improve the legal protection of labor migrants and their families, it is necessary to analyze the main features of the state governance mechanism in the structure and movement of labor migration processes. Also, the current situation and trends of migration in the country were scientifically analyzed, various consequences of the process of social transformation of labor migration were studied, special attention was paid to issues of legal regulation in order to prevent its negative consequences, as well as ways to solve problems associated with this issue. The article presents the conclusions obtained as a result of a comparative analysis of sociological research and official data conducted by the author.

Key words: labor migration, trend, legal protection, international labor market, country, salary, standard of living, need.

KIRISH

Xalqaro mehnat bozorlarini liberallashtirish dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli jihatlarini integratsiyalashuvi bilan birga uni transformatsiya jarayonini tadqiq qilish davomida ko'plab olimlar jamiyat (aholi) va davlatning o'zari aloqadirliigi muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlaydilar. Davlat siyosati bilan bog'liq holda aholi mehnat migratsiyasi uchun xalqaro chegaralarning yanada ochilishi va chiqish vizasini osonlashtirish kabi holatlar kuzatiladi. Bu tendensiyalar O'zbekistonning migratsiya siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuv va usullarni ishlab chiqish dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli farmonida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 204-bandida, O'zbekiston Respublikasi "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqish belgilanganligi qayd etilgan.

Bu borada so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi oldida turgan bir qator muhim vazifalarni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli Farmoni [1]. Yangi O'zbekiston respublikasida mehnat munosabatlari yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjatlardan biri sifatida qabul qilindi.

METODOLOGIYA

Mamlakatimiz, hukumati tomonidan 2018-yil 5-iyuldagi P-3839-sonli «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish buyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [2], 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli «Kambag'al va ishsiz

fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-xunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [3], mehnat migratsiya sohasini tartibga solishga oid qonun O'zbekiston Respublikasining 2020-yilning 13-avgustdagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonun, 2020-yil 15-sentabrdagi P-4829-sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [4], hamda 2021-yilning 4-iyundagi O'RQ-692-sonli "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonunlar va o'ndan ortiq qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishi ahamiyatlidir. Shuningdek, 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-sonli «Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [5], 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5220-sonli «Vatandoshlar» [6] jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi Prezident qarorlari kabi normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, keyingi yillarda tashqi mehnat migratsiyasining samarali tizimini ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Prezidentning 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-son qarori [7] qabul qilinishi fuqarolarning mamlakatdan tashqaridagi mehnat faoliyatiga doir huquqlari, ular va oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yordam bermoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu qaror, mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida xalq turmush tarzi vat farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro reytingini ko'tarish, mehnat migratsiyasining noqonuniy xatti-xarakatini oldini olish va muommolardan xolos etishga qaratilgan dadil qadam bo'ldi. Lekin, Ushbu qarorlar soxaga amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami keng bo'lsada, ushbu soxaga oid ba'zi muammolar hali ham mavjudligiga e'tibor karatilmagan.

Xalqaro migratsiya jarayonida O'zbekistonning butun jahondagi ishtiroki hozirgi kunda o'ziga xos xususiyatga ega, aholini huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida bu jarayonga davlat faol va samarali tarzda aralashmoqda. Bunda xalqaro mehnat bozoridagi kelishuvlarni tartibga solish va migrantlarning boshqa mamlakatga chiqishi hamda qaytib kelish muddatini nazorat qilmoqda. So'nggi yillarda tashqi migratsiyada mehnat migratsiyasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bormoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini qabul qilish to'g'risida"gi PF-60-son farmonida "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturida keltirilgan **85-maqsad** [8]: "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish", **86-maqsad** [9]: "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish", **87-maqsad** [10]: «Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish" kabi vazifalar belgilab berilgan. Yuqoridagi qaror va xujjatlarga muvofiq aholi bandligi ta'minlash hamda qonun bilan tartibga solish, shuningdek, mehnat migrantlarining ham ichki ham tashqi noqonuniy migratsiya oqimlarining sonini keskin kamaytirish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va butun xalqaro mehnat migratsiyasi tizimining transformatsiyalashuvi, xavfsizlikka tahdidlar doirasining kengayishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha taxminan 281 million nafar mehnat migranti mavjud bo'lib, ular dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil qiladi [11].

2022-yil O'zbekiston Respublika Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, chet elda vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni o'rtacha 2,4 million kishini tashkil etadi. Shundan 568,5 ming nafari (24,1 foiz) ayollar, 827,1 ming nafari (35,1 foiz) yoshlardir [12]. Shuningdek, statistik ma'lumotlarga ko'ra

2022-yilda ishsizlik darajasi 9,4%ni [13] tashkil etishi, mamlakat aholisi oilalarining har oltinchi xonadondan birida, mehnat muxojirlari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Aholi orasida asosan mehnat muhojirlari Rossiya Federatsiyasida ekanligi o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.

Shuni ham aloxida ta'kidlash kerakki, inson taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan migratsiya jarayonlarini ijobiy hodisa sifatida qarash mumkin, chunki migratsion harakatlar yordami bilan oilalar o'rtasidagi turmush darajasidagi farqlar bartaraf etiladi, jahon iqtisodiyotining ehtiyojlari qondiriladi, ijtimoiy-madaniy almashinuv va kishilar o'zaro ma'naviy olamining shakllanishi va uning tarakkiyoti, hamda ma'naviy dunyoqarashining boyishi bilan izohlanadi. Xalqaro mehnat migratsiya ham donor, ham ratsipient mamlakatlarning rivojlanishi va aholining farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda, mehnat migratsiyasi xarakati natijasida inson kapitalini rivojlantirishning eng dolzarb vazifalari belgilangan bo'lib, jumladan, iqtisodiy bilimlar va innovatsion millimiy tizimlarni shakllantirish asosida mujassamlashmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatning boshqa sohalaridagi rivojlanishlar kabi bizning mamlakatimizda tashqi va ichki mehnat migratsiyasining aholi ko'lami jadal ravishda ko'payish holati kuzatilmoqda. Mamlakatda halqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli o'sish holatini hosil qilib, norasmiy mehnat migratsiyasi aholining katta qismini tashkil etmoqda. Buning natijasida ayol migrantlar va ularning yosh bolalarni joylashtirishda zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq yuqoridagi muommolarni oldini olishda mamlakatda migratsiya siyosatini amalga oshirishda yangicha qonuniy tartibda yondoshuvni talab etmoqda. Shu o'rinda, mehnat migratsiya sohasidagi milliy manfaatlarni himoya qilish muhim davlat vazifasi bo'lib, mamlakatning barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda muassasalarining kelishilgan faoliyatini taqozo etadi.

Davlat faoliyatida har ikki tomonni manfaatlarini hisobga olgan holda migratsiya siyosati orqali mehnat migratsiyasini tartibga solish va uni boshqarishga qaratilgan vazifalardan iboratdir.

O'zbekistonda migratsiyani tartibga solishning asosiy va muhim vazifalari qatoriga migratsiyaning asosiy yo'nalishlarini va turlarini aniqlash uni qonunchilikda mustahkamlanishi kiradi. Uning asosida O'zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlarini monitoring qilish va prognozlashning yagona axborot-tahliliy tizimini shakllantirish talab etiladi.

Ijtimoiy mehnat migratsiyasi davlat qonunchiligi va xalqaro aktlar yordamida quyidagicha tartibga solinib, qonunchilikda 2 xil tendensiya amal qiladi:

1) ochiq iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchini, mehnat migrantlarining erkin harakatlanish tendensiyasi;

2) proeksionizm sharoitida migratsion jarayonlarning to'siqlarini mavjudligi.

Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi mehnat migrantlarining manfaatlarini himoyalash hamda mehnat muhojirlarini yetkazib beruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar manfaatlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash bilan bog'liqdir.

Shunday ekan, mamlakatdagi dolzarb masala va muammolarning o'z vaqtida hal etilmasligi natijasida ba'zi bir holatlarni yanada og'irlashib ketishiga olib keladi. Shuning uchun ham davlat tomonidan olib borilayotgan harakatlar eng avvalo qonunchilik bazasi va qonunchilik faoliyatini shakllantirishga, mehnat migrantlariga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaratishga ko'maklashishga, inson kapitali transformatsiyasiga va uning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda o'z modelimizni ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Davlat migratsiya siyosatini amalga oshirishda mehnat migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solinishi uchun vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, turli jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish, o'zaro hamkorligini kuchaytirish va xorijiy tajribalarni kengrog' o'rganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xususan, 2021-yilda O'zbekistonda Germaniya tajribasi asosida «Ishga marhamat» monomarkazi faoliyatida asosan band bo'lmagan yoki xorijga chiqishni rejalashtirayotgan fuqarolar

turli xil yoʻnalishda tahsil olishi hamda kasbga oʻqitilishi, malakasini oshirishi mumkin. Monomarkazda fuqarolarni kasbga oʻqitish bilan birga, xorijga chiquvchi migrantlarga xizmat koʻrsatish (viza, bilet, sugʻurta), maslahat berish, kasbi, malakasini inobatga olgan holda ishga joylashtirish, til oʻrgatish hamda kabi yoʻnalishlar faoliyati mavjud. Markazning yana bir muhim jihatlardan, mehnat migrantlarini xorijda ijtimoiy himoya qilish maqsadida 53153 ta sugʻurta polislari hamda 10523 ta «Viza-Migrant» kredit kartalari rasmiylashtirilib, ularga respublikada xorijda ishga joylashish bilan bogʻliq xarajatlarni toʻlash uchun beriladigan tez va eng kam talab qilinadigan hujjatlar asosida imtiyozli mikroqarzarlar berish tartibi belgilangan.

Shuningdek, xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, Oʻzbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishda quyidagi tuzilmalarning mavjudligi taʼminlanishi kerak:

- davlat organlari
- bandlik bilan taʼminlash organlari;
- notijorat tashkilotlarning vositachilik faoliyatini qonuniyligi;
- tijorat tashkilotlarining keng koʻlamini mavjudligi;
- fuqarolarining xorijda ish izlashi va ishga joylashish boʻyicha mustaqil faoliyati kabi

tuzilmalarning optimal faoliyat yuritishi respublikamizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, fuqarolarning chetda mehnat qilib pul topishi uchun xalqaro shartnomalar tuzish, ularning mamlakat tashqarisida ishga joylashishlari va ularning mehnat joylariga xavfsiz tarzda yetib borishini taʼminlash uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning xavfsizligini taʼminlanishi kabi muhim masalalarga yuqoridagi tuzilmalar zimmasiga yuklanadi. Bu esa mehnat migrantlari faoliyati imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shu oʻrinda, Oʻzbekistonda tashqi mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirishga boʻlgan ehtiyoj hamon saqlanib qolmoqda.

Mehnat migratsiyasining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, bugungi kunda mehnat migratsiyasining oʻziga hos bir nachta muammolari mavjud boʻlib, bu esa bevosita koʻplab davlatlarning xavfsizligi va davlat suverenitetiga taʼsir qiladi. Jamiyat farovonligi va aholining ijtimoiy ravnaqiga mehnat migratsiyasi muammolari va uning oqibatlari taʼsiri juda nozik masala hisoblanib, mamlakat aholisi uchun ham, mehnat migrantlarining uchun ham olohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun migratsiya siyosati va migratsiya oqimining jadal oʻsishi masalalari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli muammolari, demografik va ijtimoiy moslashuvchanlik muammolarini hal qilish bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganishni talab etadi.

Darhaqiqat XXI asr boshlarida ortib borayotgan migratsiya oqimini davlat siyosati nuqtai nazaridan tartibga solishda insonparvarlik tamoiliga asoslanib boshqarish mehnat migratsiyasi muammolarini tahlil qilish va unga yechim topish oʻzining dolzarbligi bilan xalqaro hamjamiyatning diqqat markaziga aylangan. Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha davlatlari faol migratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. Har yili millionlab odamlar ish topish, oʻqish, sayohat qilish, qarindoshlari bilan koʻrishish istagida, turli xil taʼqiblar, siyosiy qochoqlar va favqulodda vaziyatlardan qochish maqsadida chegaralarni bosib oʻtadi.

Shu oʻrinda, Oʻzbekiston Respublikasi migratsiya jarayonlarini boshqarish va uni tartibga solishda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi davlatlari ichida munosib oʻrin egallab, ushbu doirada mehnat migratsiyasi sohasida samarali davlat siyosatini olib boradi va aʼzo davlatlarning muvofiqlashtirilgan migratsiya siyosati toʻgʻrisidagi deklaratsiyasida belgilangan tamoyillarni amalga oshirishda munosib va faol ishtirok etadi. Shuningdek, aholini roʻyxatga olish jarayonida mamlakatda ichki migratsiyaning asosiy koʻrsatkichlari va mamlakat aholisining statistik tahlili oʻrganildi.

Hozirgi kunda aholining noqonuniy mehnat migratsiyasi jarayonidagi muammoli masalalar Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan tartibga solinishi talab etilayotgan oʻta dolzarb hodisadir.

Shuni alohida takidlash kerakki, mamlakatimiz aholilari orasida emigratsiya jarayonlarida ham faol fuqarolar mavjud boʻlib, bu holat bizni emigratsiya jarayonini ham alohida oʻrganishga olib keldi.

Davlatning emigratsiya siyosati – bu emigratsiya jarayonini tartibga solib, optimal emigratsiya muxitini yaratish bilan birga uning hajmi, tarkibi va oqimini maqsadli ravishda amalga oshirishni taʼminlashni koʻzlaydigan siyosatidir.

Emmigratsiya oqimini bavosita tartibga solish quyidagilardan iborat:


- 1) chet eldan valyuta kirib kelishi bilan bog‘liq valyuta va bank siyosatini olib borish;
- 2) fuqarolarga hisob raqamida valyuta saqlash bo‘yicha imtiyozlar yaratish;
- 3) mehnat migrantlariga qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish imkoniyatlarini yaratish;
- 4) bojxona siyosatini optimallashtirish, o‘z vataniga qaytayotgan mehnat migrantlariga boj to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish.

Emmigratsiyani tartibga solishning bevosita usuli quyidagilardan iborat:

- 1) mehnat migratsiyasi sub’ektlarini, ya’ni vositachi firmalar yoki mehnat migrantlari faoliyatini tashkil etuvchi muassasalar ishini nazorat qilib turish;
- 2) ekspansion siyosat, ya’ni chet el bozorlaridagi ish joylarini egallab olish uchun yo‘naltirilgan siyosatni, ya’ni, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish
- 3) emigratsiya bilan bog‘liq strukturaviy siyosatni amalga oshirish, ya’ni davlat va jamiyat uchun zarur bo‘lgan fuqarolarga chet el pasporti berilishini cheklash;
- 4) ayrim toifadagi ishchilarning xorijga chiqib ketishini ta’qiqlash, emigratsiyaga kvota qo‘yish va xakozolar hisoblaadi.

Shu bilan birga, mamlakat uchun emigratsiya harakatining afzalliklari ham mavjud bo‘lib, ular aholi orasida ijtimoiy muhitni yaxshilash, o‘zlarini ustida ishlash, kasb malakalarini oshirish, uy-joy va moddiy sharoitlarni yaxshilash, turli shaxsiy yoki tashqi sabablarga ko‘ra noqulay (ekologik, siyosiy) muhitni tark etish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishning yana bir afzalligi – insonlarning dunyoqarashini, ularning boshqa halqlar bilan integratsiyalashuvi, tafakkurini kengaytirish va yangi tajriba orttirish imkonini beradi.


Tadqiqotning sub’ekti sifatida respondentlarga berilgan savol orqali, xalqaro mehnat migratsiyasining turli omillarini tahlil qilish, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tendentsiyalari, migratsiyani o‘zbek oilalariga (farzandlar ruhiy holatiga) ta’sirini o‘rganish, shuningdek, mamlakatda samarali bandlikni ta’minlanishi, tashqi mehnat migratsiyasini qisqartirish, mehnat balansi ko‘rsatkichlari, shu jumladan, davlat strategik dasturlari va loyihalarini amalga oshirishga hizmat qilishiga erishamiz.



1- rasm. Xorijda ishlashingizni siz va oila a’zolaringiz qanday baholaydi

Olingan tadqiqotlardan ma’lumki, aholining asosiy ko‘rsatkichi 49 foizi yaqinlaridan birini xorijda ishlashini maqul ko‘radi, shuningdek 25 foizi esa yaqin insonini uzoqda yashashini hohlamaydi (asosan, yosh oilalarda, er-xotinlarda qarshiliklar kuzatildi), migrantlar orasida bu xaqida uylamagan va javob berishga qiynalayotganlar oz miqdorni tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek oilalari iqtisodiy ahvolini yaxshilash bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar, jumladan er va hotin munosabatlarini yomonlashuvi, bolalarni ota yoki ona mehridan uzoqlashish oqibatida bolalar psixologiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazish holati ham mavjud ekanligi nomoyon bo‘ldi.

Shu jumladan oilani mustaxkam davom etishida yoshi katta insonlarni ahamiyati katta ekanini inobatga olgan holda, respondentlar bergan javob quyidagicha tahlil etdik.



2- rasm. Mahallangizda yashovchi katta yoshdagi fuqarolarning qanchasi mehnat migrantlari hisoblanadi (2018-2023-yillar tahlili %)


Respondentlarning 2022-2023-yillar davomida olingan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra aholining foiz nisbatida ular yashaydigan xududda katta yoshlilarning qaysi qismini mehnat migrantlari tashkil etayotganini ko‘rsatib o‘tdilar.

So‘rovda ishtirok etganlarning aksariyati (54%) mehnat migrantlari sifatida kattalar aholisi 15% gacha (javob miqdori 5% dan kam - 30%, 5 dan 15% - 28%). Respondentlarning 22 foiz mahalla aholisi migrantlardir, deb hisoblashadi.

Demak, bizda 2018-2020 yillar davomidagi olib borgan tadqiqotimizga nisbatan ko‘payishi tendensiyasi kuzatildi, ya‘ni so‘rovda ishtirok etganlarning aksariyati (52%) katta yoshdagi mehnat migrantlari sifatida 15% gacha (javob miqdori 5% dan kam - 27%, 5 dan 15% - 25%) tashkil etib, migrantlar aholining 18 foiziga to‘g‘ri keladi deb javob berganlar [14].

Shuningdek, viloyatlar kesimida tahlil qilinganda mahallalarda yashovchi katta yoshdagi fuqarolarning fikriga ko‘ra, xorijga chiqishni xohlovchilar xorijga chiqishni xohlamaydiganlardan ko‘ra ko‘pchilikni tashkil etish istagida ekanligini bildirdi. Bu natijalar taxlili esa bugungi kundagi tadqiqot natijasi taxliliga ko‘ra, katta yoshdagi mehnat migrantlari ko‘lamini ortishi bilan izohlanadi.

Emigratsion xarakatni o‘rganish maqsadida respondentlarga navbatdagi savol bilan muroj qildik.



3- rasm. Boshqa davlatga ishlash uchun borsangiz asosan qancha muddat u yerda qolasiz?

Ularning ta'kidlaganidek, asosan, boshqa mamlakatga ishlash uchun ikki yilgacha bo'lgan taxminiy muddat bilan amalga oshiriladi: 35% - olti oydan bir yilgacha, bir yildan ikki yilgacha 40%. Deyarli 10% respondent «5 yildan ko'prog'», hamda 9% respondent «uzoq muddatga», hamda 5% esa javob yo'q degan javob variantini tanlashgan.

XULOSA

Demak, olinga ma'lumotlarni tahlilida kelib chiqib hulosa qilish mumkiki, Ikki yilgacha bo'lgan davrni tanlashi migrantlarning sarmoya ortirishga xarakati bilan bog'liq bo'lishi mumkin va qaytishga chipta uchun pul topish va mustaqil yashashi, mamlakat muhitiga moslashishi, yana bir muhim holat ichki ishlar vazirligining stikerini olish qoidalari va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonlarini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilsak, inson kapitali nazariyasiga tayanish mumkin, uning doirasida mehnat migratsiyasini ijobiy nuqtai nazardan baholash mumkin. Darhaqiqat, O'zbekistonda migratsiya jarayonlarida inson kapitalidan uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash nuqtai nazaridan oqilona foydalanish zarur.

Shu o'rinda, mamlakatda mehnat migratsiyasi yo'nalishida milliy va xalqaro darajada muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu sohada hamon o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda.

TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib, emmigratsiya xarakatini tartibga solishda quyidagi dasturni taklif qilamiz:

- emigratsiya muammolarini tizimli tahlil qilish va mavjud muammolarning yechimiga tizimli yondashishga va mehnat migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish;
- migratsiya oqimlarini tartibga solish va uni mamlakat samaradorligiga ta'sirini oshirish, ularning potentsialligi, yo'nalishlari va tarkibi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari muvofiqligiga erishish;
- ishchi kuchining patentsialligi va aholining ziyolilari, malakali mutahasislarining butunlay mamlakatning tark etishini kamayishiga erishishning samarali mexanizmini yaratish maqsadida emigratsiya, shu o'rinda immigratsiya oqimini tartibga solish;
- migrantlarning boshqa davlat jamiyatiga integratsiyalashuvi va mehnat muhojirlarga nisbatan bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan kelishuvlarni imzolanishi.

Biz taklif qilgan quyidagi davlat dasturi shakllanishining asosiy maqsadi mamlakat xukumati, milliy idoralari tashkiliy-huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishda tizimli va kelishilgan faoliyatini ta'minlashdan iborat bo'lib, unda mehnat migrantlarining ziyoli, ish bilarmon, malakali mutahasislarining mamlakatni butunlay tark etishini kamaytirish, tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksportini tartibga solishni takomillashtirishga, aholining noqonuniy mehnat migratsiyasi va ular bilan bog'liq salbiy xatti-harakatlar oqibatining oldini olishga qaratilgan samarali faoliya yuritishdan iboratdir. Shuningdek, bunday muommoli xavfni erta aniqlash, ularga chek qo'yish va ushbu ijtimoiy xavfli hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etishni ta'milaydi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5052-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qaror.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son qaror.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-son qaror.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5220-son qaror.
7. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/uzbekistonlik_mehnat_migrantlarini_qanda_y_qullab-quvvatlashadi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son/<https://president.uz/uz/pages/view/strategy>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son/ 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi /<https://president.uz/uz/pages/view/strateg>.
10. 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараqqiyёт стратегияси/<https://president.uz/uz/pages/view/strategy>.
11. Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasi Milliy sayti ma’lumoti/Toshkent. 19.12.2022 yil/<http://nhrc.uz/uz>.
12. Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasi Milliy sayti ma’lumoti/Toshkent. 19.12.2022 yil/<http://nhrc.uz/uz>.
13. Обзор по Узбекистану//Всемирный банк:[сайт].URL:<https://www.vsemirnyjbank.org/ru/country/uzbekistan/overview> (дата обращения: 31.03.2023).
14. Имомова Н.А. Ўзбекистонда ишчи кучи миграциясигс ижтимоий омиллар таъсири/Диссертация. – Тошкент, 2021. – Б.101-103.
15. Яновский Ю.А. Международный Конгресс “Евразия: занятость в XX И веке” Международный семинар по трудовой миграции. – М, 2001.
16. Доклад о миграции в мире 2022, Международная организация по миграции ИСБН 978-92-9068-078-7 /<https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022>
17. Шалагинова Н.А./Диссертация/ Социальная маргинальность: характерологические свойства и типологические признаки/ Ростов - на - Дону – 2012. – С.224.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000